

Roza Qurbonova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
"O'zbek tili ta'limi" fakulteti talabasi
E-mail: toshkenttalaba@gmail.com*

NAVOIY "XAMSA"SI VA KOMPARATIVISTIKA

MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosining boshqa tillardagi tarjimasi va Navoiy asarlarning chet el adabiyotida tutgan o'rni, tarbiyaviy ahamiyati hamda ma'nosi aynan to'g'ri mos tarjima qilinganligi, asardagi g'oyaning o'zgarishsiz yetkazib berilishi haqida fikr-mulohazalar yozilgan. Tarjimalardan namunalar keltirilib talqin qilingan.

Kalit so'zlar: ijod, tarjima, komparativ, komparativ tahlil, tahlil, ijodiy meros, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiyot.

NAVAI'S "KHAMSA" AND COMPARATIVE STUDIES

Abstract. The article contains comments on the translation of Alisher Navoi's creative heritage into other languages, the place of Navoi's works in foreign literature, their educational significance, and the correct translation of their meaning, as well as the fact that the idea in the work is conveyed without changes. Examples from the translations are given and interpreted.

Keywords: creativity, translation, comparative, comparative analysis, analysis, creative heritage, linguistics, literary studies, literature.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (qiyosiy tilshunoslik, komparativistika) tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya'ni genetik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan tillarni tadqiq etuvchi soha va ularning o'zaro munosabatlarini aniqlash, zamon va makondagi tarixiy taraqqiyot jarayonini tavsiflash bilan shug'ullanadi. Ushbu yo'nalishning asosiy maqsadlaridan biri – til oilalari, turlarining shakllanishi, alohida tillar va ularning unsurlarining kelib chiqishini belgilash hamda ular orasidagi genetik qarindoshlikni, turi va tipini, ya'ni bitta manba – bobo tildan kelib

chiqqanligini aniqlashdir. Umumiy qilib aytganda, komparativistika – bu tillarning genealogik tasnifidir.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillar tarixini qayta tiklash, ya'ni rekonstruksiya qilish jarayonida qiyosiy-tarixiy metoddan asosiy tadqiqot vositasi sifatida foydalanadi. Ushbu tadqiqotning umumiy shakllari sifatida qiyosiy-tarixiy grammatikalar (asosan fonetikani qamrab oluvchi) va etimologik lug'atlar (leksik qatlamni yorituvchi) tuziladi [1]. Alisher Navoiy o'zining beqiyos adabiy merosi bilan jahon adabiyoti xazinasida alohida o'rin tutadi. Uning "Xamsa" asarlari turkiy tilda yaratilgan ilk xamsa sifatida o'zbek adabiyoti va tilining nufuzini oshirdi. Xamsachilik an'anasi mavjud edi va u o'z ichiga 5 ta dostonni qamrab olardi. Navoiy Xamsasi ham bu an'anga sodiq holda yozilgan. Ammo o'sha davrda ijodkorlar turkiy tilda emas, balki forsiy tilda ijod qilar va forsiy tilning jozibasidan foydalanardi. Lekin Navoiy "Xamsa"ni turkiy tilda yozdi hamda turkiy tilning jozibasidan unumli foydalandi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Navoiy ijodini komparativ adabiyotshunoslik doirasida tadqiq etish Sharq va G'arb adabiy merosini qiyosiy ko'rib chiqishga imkon beradi. Ushbu maqolaning maqsadi – Navoiy "Xamsa"sini sharq xamsanavislik an'anasi kontekstida tahlil qilish va uning komparativistikaning nazariy-metodologik asoslari bilan bog'liqligini yoritishdir. Turkiy til boy va unga forsiy va arabiy yabanji so'zlar kirgan. Yabanji so'zlarning aksariyatining turkiy muqobili bo'lgan va buni Navoiy foydalanib ijod qilgan. Til bir o'zakdan tashkil etilsa, u kam so'zli va quruq bo'lib qoladi. Tilga yangi so'zlar qo'shilishi bu tabiiy hodisa hisoblanadi. Vaqt o'tib bu so'zlar o'zlashib ketadi.

Xamsanavislik an'anasi va komparativistikaning nazariy asoslari

Sharq adabiyotida xamsanavislik an'anasi Nizomiy Ganjaviy ijodidan boshlanadi. Nizomiy tomonidan yaratilgan "Panj ganj" asari keyingi adiblar uchun badiiy namuna vazifasini o'tagan. Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy ham ushbu an'anani davom ettirib, o'z davri adabiy-estetik qarashlarini aks ettiruvchi xamsalarni yaratganlar. Komparativistika esa turli madaniyat va adabiyot namoyandalarining asarlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ular orasidagi umumiylik va farqlarni ochib beradi.

Navoiy “Xamsa”sining komparativ tahlili

Navoiy o'zining “Xamsa” majmuasida besh dostonidan iborat ulkan badiiy olamni yaratdi. “Hayrat ul-abror” asari axloqiy-falsafiy yo'nalishi bilan Nizomiy va Jomiy dostonlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. “Farhod va Shirin”da muhabbat va fidoyilik g'oyasi, “Layli va Majnun”da esa insoniy izzat va sadoqat masalalari o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Fuzuliy ijodi bilan qiyoslanganda, Navoiy asarlarida ijtimoiy-falsafiy ruh kuchliroq bo'lsa, Fuzuliyda lirizm yetakchilik qiladi. “Sab'ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlari esa Sharq adabiyotidagi tarixiy-siyosiy qarashlar bilan uyg'unlashib, insoniyat taqdiriga oid chuqur falsafiy mushohadalarni o'zida mujassam etadi.

Navoiy “Xamsa”sining matnshunoslik va qiyosiy-tarixiy tadqiqotlari

“Xamsa” dostonlari turli davrlarda ko'plab qo'lyozmalar orqali bizgacha yetib kelgan. Ilmiy-tanqidiy matnlarni tayyorlashda qiyosiy-tarixiy metodning qo'llanishi muhim o'rin tutadi. Porso Shamsiyev ilk bor ushbu dostonlarning tanqidiy matnlarini tayyorlash jarayonida qiyosiy yondashuvdan foydalangan. Keyinchalik G'iyosiddin va Nafas Shodmonovlarning izlanishlari ushbu sohaning ilmiy asoslarini mustahkamladi. Bugungi kunda ham matnshunoslikda qiyosiy metod Navoiy asarlarining aniq ilmiy nusxalarini yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy “Xamsa”si komparativ adabiyotshunoslik va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik uchun muhim manba hisoblanadi.

Komparativistika (lot. comparativ – qiyosiy) turli xil jarayonlarning qiyosiy o'rganilishiga asoslangan fan yo'nalishi bo'lib, boshqa sohalar qatorida til va adabiyotni ham qamrab oladi.

Mazkur termin birinchi marta Fransiyada (“Littérature compare” – 1817), keyin Angliyada (“Comparative literature” – 1886), Germaniyada (jurnal nomlanishida “Zeitschrift für vergleichende Literaturgeschichte”, 1887–1910), Rossiyada (1889-yil A.N.Veselovskiy tadqiqotlarida) qo'llanila boshlangan.

Filologik komparativistika til va adabiyot sohasida olib boriladigan qiyosiy tadqiqotlardir. Shu jihatdan filologik komparativistika ikkita katta guruhga ajratiladi:

1. Lingvistik komparativistika, ya'ni qiyosiy tilshunoslik.
2. Adabiy komparativistika – qiyosiy adabiyotshunoslik.

Lingvistik komparativistika, bir-biriga yaqin bo'lgan va yaqin bo'lmagan tillarni turli yo'nalishlarda qiyosan o'rganishni maqsad qiladi. "Tillarni qiyosiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik jihatidan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat'iy tan olinishiga zamin yaratdi" [2, 6-b].

Adabiy komparativistika barcha adabiy hodisalarning mushtarak va o'ziga xos jihatlarini o'rganadi va ular uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Navoiy ijodi orqali nafaqat turkiy adabiyotning, balki butun Sharq badiiy tafakkurining yuksak cho'qqilari namoyon bo'ladi. Komparativ tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiy xamsasi Sharq adabiy maktabini turkiy muhitda mustahkamlab, jahon adabiyoti bilan uyg'unlashtirdi. Shu bois, Navoiy merosi bugungi kunda ham komparativistikaning tadqiqot obyekti sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Alisher Navoiy turkiy til haqidagi bu fikrni birinchi bo'lib inkor etgan. U turkiy shoirlar orasida birinchi bo'lib turkiy tilda ajoyib she'rlar yozdi. Navoiy hech qachon "o'zbek" so'zini asarlarida qo'llamaydi, u g'azallarimni "turkcha yozdim" deydi [3, 869–874-b].

Amerika Qo'shma Shtatlarining Massachusetts shtatida istiqomat qiluvchi adabiyotshunos, yozuvchi va shoir Denis Deli ko'p yillik izlanishlari tufayli Alisher Navoiyning g'azallarini ingliz tiliga o'girdi hamda "Cervena Barva Press" nashriyotida "Alisher Navoiyning yigirma bir g'azali" ("Twenty one ghazals by Alisher Navoiy") deb nomlangan kitobni chop ettirdi. To'plam xorijliklar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. U yozadi: "Alisher Navoiy – buyuk shoirlardan biri. Italiyaliklar uchun Dante qancha qadrli bo'lsa, Navoiy ham o'zbeklar uchun shunchalik buyuk shaxs. Qisqa vaqt ichida uning barcha ijodi bilan tanishish mushkul. Buning uchun bir insonning umri yetmaydi. Men uning ingliz,

rus, fransuz tillaridagi tarjima asarlarini ko'zdan kechirdim. Angladimki, Alisher Navoiy ijodiga butun dunyoning qiziqishi hamon davom etib kelmoqda. Ulug' shoir ijodining bir qatrasini kashf qilgan kishi borki, hayratini yashira olmaydi. Tezroq Navoiy haqida zamondoshlariga xabar bergisi, uning yozganlarini o'z ona tiliga o'g'irgisi kelaveradi. Men bunga aminman. Masalan, mamlakatingizda Alisher Navoiy ijodi haqida ilmiy tadqiqot olib borgan kanadalik Harri Dik Navoiyga "Dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqara oladigan ko'ngil bog'ining bog'boni" deya ta'rif beradi va "Lison ut-tayr" asarini ingliz tiliga tarjima qiladi. Bular qatoriga "Farhod va Shirin"ni ukrain tiliga tarjima qilgan shoir Nikolay Bajan, polyak tarjimoni Yanush Kijiovskiyni ham qo'shish mumkin. "Navoiy ijodi shunchalik serqirradi, uning tarjimasiga qo'l urish uchun, avvalo, islom dini g'oyasi va qarashlari, turkiylar madaniyati, yashash tarzi, so'zlarning kelib chiqish etimologiyasini ham bilish juda zarur ekan..." [4].

Xulosa o'nida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy ijodi serqirraligi va ma'naviy yetukligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Asarlarida tilga bo'lgan e'tibor, milliylik, o'zlikni anglash, adabiyotni eng yuqori cho'qqilarda tahlil va tasvirlay olishi tahsinga loyiqdir. Shu boisdan ham, Navoiy ijodi yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba sifatida qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uzpedia.uz/pedia/komparativistika>.
2. Xalliyeva G. *Qiyosiy adabiyotshunoslik*. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 6-b.
3. Raximbaeva G., Gazyeva Sh. *Alisher Navoiy*. – Toshkent: Neofilologiya, 2022. – 869-874-b.
4. "Xalq so'zi" gazetasi, 26 aprel, 2018-yil.

